Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







TIJORAT BANKLARIDA FAKTORING XIZMATLARINING ROLI

Allaniyazova Kamila Kongiratbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti, mustaqil tadqiqodchisi
kamilaasaka76@gmail.com , telefon: +998904222424

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mahalliy faktoring xizmatlarining joriy holati, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, faktoring operatsiyalarining korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni, ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlarini moliyalashtirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: faktoring, moliyaviy xizmatlar, debitor qarzdorlik, likvidlik, kichik va o‘rta biznes, moliyalashtirish, bank tizimi, moliyaviy instrumentlar, iqtisodiy rivojlanish.

Mazkur Faktoring xizmatlari bozori bo‘yicha ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasida mahalliy faktoring xizmatlarining joriy holati, ularning rivojlanish yo‘nalishlari, hududlar va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi qamrovi hamda kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo‘llanilayotgan diskont stavkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritadi.

O‘zbekiston Respublikasida mahalliy va xalqaro faktoring xizmatlarining joriy holati, ularning rivojlanish yo‘nalishlari, hududlar va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi qamrovi hamda kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo‘llanilayotgan diskont stavkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoritadi.

2025-yilda kredit tashkilotlari tomonidan jami **9,5 trln** so‘mlik faktoring xizmatlari ko‘rsatilib, ushbu xizmatlarning 8,8 trln so‘mi yoki **93 foizi** tijorat banklari va **699 mlrd** so‘mi yoki **7 foizi** mikromoliya tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri kelgan

Bunda, ko‘rsatilgan faktoring xizmatlarining **4,4 trln** so‘mi yoki **46 foizi** raqamli faktoring xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelib, ushbu faktoring xizmatlarining **2,5 trln** so‘mi (58 foiz) “Ozplanet” elektron faktoring platformasi, **1,8 trln** so‘m miqdori (42 foiz) “Finmakon” elektron faktoring platformasi orqali amalga oshirilgan

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii








№	Banklar	Ko‘rsatkich, (*trln.so‘m*)
Davlat ulushi bo‘lgan banklar		
1	Asaka bank	1,5
2	O‘zmilliybank	0.921
3	O‘zsanoatqurilishbank	0,761
Xususiy banklar		
1	Kapitalbank	1,3
2	Hamkorbank	0,909
3	Asia Alliance bank	0,354
4	Mikromoliya tashkilotlar, jami:	0,699

Kredit tashkilotlari kesimida 2025-yilda ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, mlrd so‘m



Bugungi kunda, tijorat banklarining qisqa muddatli moliyalashtirish xizmatlarida faktoring xizmatlarini alternativ yechim sifatida keng ko‘lamda ommalashtirish choralari ko‘rilmoqda.Natijada, 2024-yilning II yarim yilligida ko‘rsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishga nisbati 1 foizdan (iyul) 6,1 foizga

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







(dekabr) oshgan bo‘lsa, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu ko‘rsatkich 4,5 foizdan 11,1 foizga yetdi.

Hududlar kesimida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan factoring xizmatlarining asosiy qismi Toshkent shahri (4,1 trln so‘m yoki 43,3 foiz), Andijon viloyati (1,9 trln so‘m yoki20,4 foiz), Toshkent viloyati (859 mlrd so‘m yoki 9,1 foiz) va Farg‘ona viloyatiga (543 mlrd so‘m yoki 5,7 foiz) to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Surxondaryo viloyati (67 mlrd so‘m yoki 0,7 foiz), Sirdaryo viloyati (47 mlrd so‘m yoki 0,5 foiz) va Jizzax viloyatida (45 mlrd so‘m yoki 0,5 foiz) eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Mijozlarning tashkiliy shakli bo‘yicha ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari taqsimotida eng yuqori ulush mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga to‘g‘ri kelib, ularga 6,2 trln so‘m yoki jami xizmatlarning 65,4 foiz miqdorida faktoring xizmatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, aksiyadorlik jamiyatlariga 1,8 trln so‘m yoki 19 foiz miqdorida faktoring xizmatlari ko‘rsatilgan.Shuningdek, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning 1,3 trln so‘mlik (13,3 foiz) hamda xususiy, oilaviy korxonalar va fermer xo‘jaliklarining 218 mlrd so‘mlik (2,3 foiz) debitorlik qarzlari faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan.

Jami faktoring xizmatlarining 246 mlrd so‘mi yoki 3 foizi yillik aylanma mablag‘lari 1 mlrd so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga (mikromoliya tashkilotlari 218 mlrd so‘m, tijorat banklari 28 mlrd so‘m), 556 mlrd so‘mi yoki 6 foizi aylanmasi

1 mlrd so‘mdan 10 mlrd so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlarga, 1,7 trln so‘mi yoki 18 foizi aylanmasi 10 mlrd so‘mdan 100 mlrd so‘mgacha bo‘lgan tadbirkorlarga va 7 trln so‘mi yoki 73 foizi aylanmasi 100 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan tadbirkorlarga ko‘rsatilgan.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida mahalliy faktoring xizmatlari so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda va iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning muhim instrumentiga aylanmoqda. Ayniqsa, faktoring xizmatlari korxonalarning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda, debitor qarzdorlikni boshqarishda hamda likvidlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, faktoring xizmatlarini rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va investitsion faollikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusida mazkur sohani chuqur isloh qilish va xalqaro tajribalarni joriy etish orqali uning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. Ochiq ma’lumotlar bazasi. https://cbu.uz/uz/press_center/releases/3564812/?sphrase_id=650216
2. .Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2022). Development of financial services market in Uzbekistan. Tashkent.
3. World Bank. (2021). Small and medium enterprises finance: Improving access to finance. Washington, DC.
4. International Finance Corporation. (2020). Supply chain finance and factoring development. Washington, DC.

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







5. International Monetary Fund. (2022). Financial sector development and financial inclusion. Washington, DC.
6. European Bank for Reconstruction and Development. (2021). Trade finance and factoring in transition economies. London.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. Ochiq ma’lumotlar bazasi. 2026-yil mart oyida yangilangan talqin.